

DUAL TA'LIM TIZIMINING MOHIYATI VA UNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O'RNI.

Sodiqova Gulnora Ergashaliyevna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tuman

1-son kasb hunar maktabi direktori

Annotatsiya: Dual ta'lism — bu o'quv jarayonida nazariy va amaliy bilimlarni uyg'unlashtiruvchi ta'lism tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi talabalarni ish jarayoniga tayyorlashdir. Dual ta'linda o'quvchilar vaqtlarining bir qismini ta'lism muassasasida nazariy bilim olishga, qolgan qismini esa real ish joylarida amaliyat o'tashga sarflashadi. Bu tizim talaba o'z sohasidagi kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ish jarayoniga integrasiya bo'lish va ish joyidagi talablarga tayyor bo'lish imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: Dual ta'lism, kadrlarning o'rni, ta'lism tizimi, proffisional ta'lism, zamonaviy texnologiyalar.

KIRISH

Hammamizga ma'lumki, iqtisodiyotni rivojlanishida o'rta bo'g'in kadrlarining o'rni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. An'anaviy ta'lism shaklida o'quvchi oliy yoki professional ta'lism muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyat qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lism tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lism shakli O'zbekiston ta'lism tizimiga kiritildi.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismiga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi. Dual ta'lism — o'quvchi yoki talabaga ta'lismi o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan

birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yil PF-5847 sonli farmonida “O‘zbekiston Respublikasida oliv ta’limni tizimli isloq qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliv ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish” ning ustuvor vazifalari belgilangan. Bu borada talabalarni dual ta’lim tizimida o‘qitish muhim o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o‘ringa ega. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, “Dual ta’lim” ta’lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta’lim bo‘yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta’limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko‘rsatib o‘tildi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagи qarori bilan Professional ta’lim tizimida dual ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. bugungi kunda dual ta’limni yanada rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rgangan holda, qonunchilik hujjaligiga o‘zgartirish va qo‘srimchalarni kiritish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat. Aytib o‘tganimdek, yoshlar ta’lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Dual ta’lim shakli professional ta’lim tizimida yo‘lga qo‘yildi. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab, maktabgacha ta’lim, temir yo‘l va qurilish kabi sohalarda o‘rta bo‘g‘in

kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta’lim muassasalariga dual ta’lim shakli bo‘yicha 3 mingdan ortiq yoshlar o‘qishga qabul qilindi.

2023-2024 o‘quv yilida professional ta’lim muassasalariga 4,5 mingdan ortiq yoshlar dual ta’lim shaklida o‘qishga qabul qilindi hamda yuqorida aytib o‘tilgan sohalarga qo‘srimcha ravishda axborot texnologiyalari, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda ham dual ta’lim shaklida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimdek, dual ta’lim mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bo‘lib, ushbu tizimni rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Dual ta’limni rivojlantirish bo‘yicha xorijiy mutaxassislar jalg qilinmoqda, mahalliy mutaxassislar Germaniya, Avstriya, Koreya va boshqa davlatlarga tajriba o‘rganish maqsadida yuborilmoqda va dual ta’limni rivojlantirish konsepsiysi ustida ishlanmoqda.

Professional ta’lim muassasalarida jahon andozalariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ko‘p jihatdan professional ta’limida zamonaviy ta’lim tendensiyalarini joriy etilishiga bog‘liqdir. O‘z navbatida bu o‘quv jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar talabi asosida tashkil qilish orqali amalga oshirilishini taqozo qiladi. Bu esa ta’lim jarayonini bozor iqtisodiyoti talablarini inobatga olgan holda tashkil etish, unga tegishli o‘qitish texnologiyalarni joriy qilish, ta’lim mazmunini doimiy ravishda yangilab borishga qaratilgan metodik ta’minotni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Mutlaqo professional ta’limning asosiy missiyalarini amalga oshirish professional ta’lim tizimiga dual ta’limni joriy etish hamda mutaxassislarni tayyorlashda zamonaviy o‘qitish texnologiyalari bilan uzviylikda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish va uni pedagogik nuqtai nazardan tadqiq qilish hamda uni yangi sifat bosqichiga olib chiqish texnologiyalari va metodikalarini yaratish talabini qo‘yadi.

Hozirgi davrda o‘qitishning dual shakli nazariy va ishlab chiqarish, amaliy mashg‘ulotlar bir vaqtning o‘zida amalga oshiriladigan dunyodagi professional va

texnik kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllaridan biridir. Bu o‘quvchilarning kasbiy ta’limida korxonalarining bevosita ishtirokini o‘z ichiga oladi. Korxonada amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun sharoitlar yaratilgan va o‘quvchilar uchun har oylik to‘lovlarni hisobga olgan holda barcha xarajatlar qoplanadi. Ta‘lim muassasalari korxonalar bilan teng asosda hamkorlik qiladi.

Dual ta’lim tizimi - bu professional ta’limning tarixan yig‘ilib kelingan shakli bo‘lib, Yevropaning siyosiy, iqtisodiy, diniy va texnologik tarixiga kirib kelgan. Bugungi kunda ushbu ta’lim tizimi Germaniya, Avstriya, Daniya, Gollandiya, Shveysariyada muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda.

Ikkilamchi ta’lim-bu xodimlarni aniq "buyurtma asosida" tayyorlash, ularning barcha talablariga maksimal darajada muvofiqligini ta’minalash, ishchi-xodimlarni topish va tanlash, ularni qayta tayyorlash va moslashtirish xarajatlarini tejashga olib keladi. Bundan tashqari, eng yaxshi bitiruvchilarni tanlash imkoniyati mavjud, chunki amaliy mashg‘ulotlar davrida ularning kuchli va zaif tomonlari aniq ko‘rinadi. O‘z navbatida, ushbu yondashuv talabalarni tekshirish uchun emas, balki o‘rganishga imkon beradi. Yosh mutaxassislarga korxona faoliyatini yaxshi o‘rganish imkoniyati ega bo‘ladi. Bularning barchasi birgalikda xodimlarni mustahkamlash va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Bizningcha zamonaviy texnologiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, hech qanday nazariya, biron bir kasbning ishlab chiqarish siklini qamrab olmaydi. Yuqori texnologiyalarning murakkab tashkil etilishi oldingi kasblarning ish sikllarining faqat bir yoki ikkita katta bosqichini ta’minalashiga olib keladi va insonning muvaffaqiyatli ishlashi, o’sishi uchun nafaqat professional bo’lish, balki ushbu sikllarda faol va to‘g‘ri ishtirok etish muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta’lim muassasalari ilm-fanning yirik o‘choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o‘quv yurtlari, dunyodagi yetakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so‘nggi

5 yilda mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmoqda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga yetdi . O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorining qabul qilinishi xorijiy o'qituvchilarni jalb etish yo'li bilan aniq hamda tabiiy fanlar, chet tillarni chuqurlashtirib o'qitishga, bu esa, o'z navbatida, yoshlarning dunyo mehnat bozorida raqobatdosh va yuqori malakali mutaxassis kadr sifatida jahon hamjamiyatida mamlakatimiz nufuzini oshirishiga, barkamol inson bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda dual ta'lim xizmatlarini ko'rsatishga asoslangan, ta'lim loyihalari oliy ta'lim muassasasiga turli xil rentabellik keltiradi: ba'zi dual ta'lim loyihalari ta'lim xizmatlarining imidji va ko'lамини kengaytirish ustida ishlaydi, ba'zilari asosiy foyda keltiradi; ushbu asoslarni inobatga olgan holda dual ta'lim loyihalarini moliyalashtirish turli manbalar talabalar mablag'lari, davlat tomonidan moliyalashtirish, korxonalar mablag'lari, homiyalar va boshqalar hisobidan moliyalashtirish zarur deb hisoblaymiz. Dual ta'lim loyihalarini amalga oshirishning xususiyatlari - oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun litsenziyaning mavjudligi, qisman subsidiya asosida byudjetdan moliyalashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Rezidentining 2017-yil 14-martdag'i RQ 2829-soni qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Rezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030» Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish shora-tadbirlari to'g'risidagi RF-6079-soni farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Rezidentining Qarori, 15.09.2017 yildagi RQ-3276-son.
4. A.X Rardayev., Z.A. Rardayeva. Boshqaruvin hisobi. Darslik. —Tafakkur!, T: 2014 y.
5. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2017 y. 454-b.
6. Mamanazarov O.Sh. Loyiha boshqaruvi o’quv qo’llanma. T – 2019.
7. Djuraev R.X. Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. Toshkent. “VORIS-NASHRIYOT”, 2006. – B 263.
8. Baratov, R. (2021). Prospects of Higher Education System (on the Example of Uzbekistan). International Journal on Orange Technologies, 3(3), 128-131.
9. Bell L. Strategic Planning and School Management: full of sound and fury, signifying nothing? Les Bell Inaugural Lecture, 19 February 2002, pp. 2, 6, 12-13.
10. Bell, L. (2002), Strategic Planning and School Management: full of sound and fury, signifying nothing, The Journal of Educational Administration, pp 2, 14. DOI: 10.1108/0957823021044027.